

## DUNYO TILLARI

**Mo'minova Mehriniso Habibjon qizi**

"Jo'ybori Kalon" ayol qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi

**Annotatsiya** Mazkur maqolada dunyo tillarining kelib chiqishi, lug'aviy Grammatik jihatdan yaqinligi, til oilalarining til turkimlariga bo'linishi yoritilib berildi, shu bilan birga dunyo tillari yana morfologik jihatdan, ya'ni tarkibidagi so'z tuzulishi jihatidan ham tasnif qilinishiga to'xtalib o'tildi.

**Аннотация** В данной статье рассматриваются происхождение языков мира, их лексико-грамматическая близость, деление языковых семей на языковые группы и одновременно классификация языков мира с точки зрения морфологии, то есть с точки зрения структура слова, был выделен язык.

**Annotation** In this article, the origin of the world's languages, their lexical-grammatical proximity, the division of language families into language groups, and at the same time the classification of the world's languages in terms of morphology, that is, in terms of word structure, was highlighted.

Dunyoda tillar kelib chiqishi, qarindoshligiga, lug'aviy va grammatic jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 ga yaqin til oilasi bor. Til oilalari bobo til nomi bilan ataladi. Til oilalari o'z navbatida til turkumlariga bo'linadi.

**Hind-yevropa oilasi** quyidagi til turkumlarini o'z ichiga oladi:

**Hind turkumi** (hind, urdu, begal, panjob, Gujarat va h...), **eron turkumi** (fors, afg'on, osetin, kurd, tojik, va h...), **slavyan turkumi** (rus, ukrain, Belarus, chex, slavak, polyak, serb, makedon bargal, xorvat, slaven.), **boltiq turkumi** (litva, latish, latgal) **german turkumi** (dat, shved, narveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy tili), **roman tili** (fransuz, provansal, italyan, ispan, Portugal, rumin, maldovan, o'lik lotin tili), **kelt turkumi** (irland, shotland, Breton, uels), **anatoliy turkumi** (o'lik), **tohar turkimi** (o'lik). Grek, alban, arman, tillari birorta turkumga mansub bo'lmasdan, shu tillar oilasiga kiradi.

**Turkiy tillar oilasiga** quyidagi turkumlar kiradi o'zbek, qozoq, qirg'iz, turk, tukman va boshqa jami 30 ga yaqin til turkiy tillar agglutinativ tillar jumlasiga kiradi, ya'ni har bir Grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi va bu qo'shimchalar so'zning oxiriga qo'shiladi.

**Fin-ugor tillar oilasiga fin guruuh** ( fin, eston, karel, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, madva tillari), **ugor guruuh** (venger, mansiy, xantiy tillari) mansubdir.

**Som-xom tillar oilasiga semit guruuh** ( arab, axmar, xarari, oysor, ivrit tillari) **qushit guruuh** (galla, Somali, saho, beja tillari), **berber guruuh** (kobil, shilx, rif, tamazist tillari), **chad-xom guruuh** (xuase, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi tillari), **Arab guruuh** ( qadimgi arab tili) kiradi.

**Kavkaz oilasiga g'arbiy guruuh** ( abxaz, abazin, adigey, kabardin, ibix tillari), **nax guruuh** ( chechen, ingush, batsbiy tillari), **dog'iston guruuh** (avar, darg'in, lezgin, lak, karatin gunzib tillari), **janubiy guruuh** ( megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy) kiradi.

**Xitoy-tibet oilasiga tay-xitoy guruhi** (xitoy, tay, dangan, laos, chjuan, vietnam tillari) **Tibet-birma guruhi** ( Tibet, birma tillari) kradi.

Bulardan tashqari, dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika til oilalari ham bor.

Dunyo tillari yana morfologik jihatdan, ya'ni tarkibidagi so'z tuzulishi jihatidan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra tillar quydag'i 4 guruhga bo'linadi.

**1. Amorf tillar.** Tarkibidagi so'zlar hech qanday so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarsiz, to'g'ridan-to'g'ri birikib, bog'lanib keladi. Bu tillarga xitoy, Tibet, birma, vietnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan tillar misol bo'la oladi.

**2. Agglyutinativ tillarda** har bir Grammatik ma'no ma'lum bir Grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanadi. masalan maktablarga so'zi shakli tarkibidagi -lar qo'shimchasi ko'plik ko'rsatkichi, -ga affaksi jo'nalish kelishigi ko'rsatkichidir.

Agglyutinativ tillarga turkiy tillar shu jumladan ona tilimiz, fin-ugor tillari, dravid, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek alohida tillar hissoblanmish yapon va kareys tillari kiradi.

**3. Flektiv tillarda** birdan ortiq grammatic ma'no birgina grammatic ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Rus tilidagi kniga so'zi tarkibidagi -a qo'shimchasi jinsni (jenskiy rod), bosh kelishikni, birlik sonni bildirib kelgan.

Flektiv tillarga hind-yevropa, semit, xamit tillari kiradi.

**4. Polisintetik tillarning** xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi. Polisintetik tillarga chukot tili kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E. Talabov (**Arab tili darsligi**) Toshkent – 1993.

2. Muhammad Yusupov (**Arab tili grammatikasi 1/2**) Namangan – 2009.
3. Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti (**O'zbek diplomatiyasি tarixidan**) Toshkent – 2003.
4. Hamroyev M. A. (**ona tili oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun o'quv qo'llanma**) Toshkent – 2009.
5. Mirqobil Hasanov va Muborak Abzalova (**Arab tili darsligi**) Toshkent – 2004.
6. D. Aliyev, M. Tojiboyeva, Z. Dehqoniva (**Arab olami**) Toshkent – 2007.
7. G'ani Abdurahmanov, Dilfuza Xo'jayeva (**Hozirgi o'zbek adabiy tili**) Toshkent – 2005.
8. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov (**ona tili umum ta'lif muktabalarining 9-sinfi uchun darslik**) Toshkent 2006.
9. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva (**ona tili umum ta'lif muktabalarining 6-sinfi uchun darslik**) Toshkent – 2009
10. M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva (**ona tili umum ta'lif muktabalarining 8-sinfi uchun darslik**) Toshkent – 2006
11. E. Umarov, R. Karimov, M. Mirsaidova, G. Oyxo'jayeva (**Estetika asoslari, kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma**) Toshkent – 2006.